

LEKSIK MA'NO VA SELEKTIV KOMPONENT

Maxmaraimova Shoxista Tuxtashevna

Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasida
dotsenti, filologiya fanlari doktori
E-mail: mahmaraimovash@tersu.uz

ANNOTATSIYA

So'z ma'nosidagi predmetga aloqadorlikni (o'xshashlik) ikki ma'noda: denotativ aloqadorlik hamda referent aloqadorlik (yakka predmetga aloqadorlik, o'xshashlik) sifatida tushunish nazarda tutilgan mazkur maqola ma'noning komponent tahliliga doir jihatlarni qamraydi. Jumladan, ma'noning voqelik bilan murakkab munosabatlarini aks ettiruvchi selektiv komponentning voqelanishiga doir qarashlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: ma'no, denotat, konnotat, selektiv komponent.

LEXICAL MEANING AND SELECTIVE COMPONENT

Makhmaraimova Shokhista Tukhtashevna

Termez State University
Department of Uzbek linguistics
Associate Professor, Doctor of philological Sciences

ABSTRACT

This article covers aspects related to component analysis of the meaning, which is meant to understand the relevance (similarity) of a subject in the meaning of a word in two terms: denotative connection and referent connection (relationship to a single subject, similarity). In particular, views on the reality of the selective component, reflecting the complex relationship of meaning with reality, are outlined.

Keywords: meaning, denotat, connotat, selective component.

KIRISH

Leksik ma'noning tadqiqi asosiy uch yo'nalishda amalga oshirilgan. Bular: A) relyasion yondashuv (belgining predmetga munosabati: ma'noning predmet, tushuncha va tasavvurga munosabati); B) funksional yondashuv (belgining ma'no anglatish vazifasi); V) substansional yondashuv. Ma'noni substansional jihatdan tushuntirish uni, ya'ni ma'noni tarkibiy qismlarga bo'linuvchi hamda predmetning

jami belgilarini ifoda etuvchi hodisa sifatida talqin qilishni nazarda tutadi. Bunda ma'no voqelikning tegishli tovush qobig'i bilan mustahkamlangan in'ikosi sifatida qabul qilinadi.

METODOLOGIYA

D.P. Gorskiy: "Har bir (mustaqil, lug'aviy) ma'no anglatuvchi so'z u yoki bu so'z bilan ataluvchi leksik ma'noning tashuvchisi hisoblanadi" deydi[1]. I.S. Toropsev esa: "Leksik birliklarning ideal tomoni his qilish, qabul qilish, tasavvur va tushuncha singari psixik hodisalarga nisbatan tushuniladi", deya qayd etadi[2].

B.I. Kosovskiyning fikricha, so'z ma'nosi ostida ongimizda shakllanib ulgurgan predmet va so'z talaffuzining o'zaro tarixiy aloqadorligini tushunish lozim. Demak, so'z ma'nosi, so'zning ichki, mazmuniy tomoni – bu tafakkurning abstrakt (mavhum) faoliyati natijasidir[3]. Ko'rinadiki, ma'noni o'rganishga qaratilgan har uch yondashuvdan ilmiy haqiqatga eng yaqini substansional yondashuv bo'lib, xususan, relyasion yondashuv orqali ma'noning tabiatini ochib bo'lmaydi, uning tarkibiy qismlariga daxldor nazariyaning o'zi bu yondashuvda mavjud emas. Ya'ni relyasion yondashuvda belgining predmetga munosabatini tekshirish birlamchi talab deb qaraladi, bu esa ilmiy izlanishlar uchun yetarli bo'lmaydi [6,8]. Holbuki, relyasion talqinda so'z ma'nosi belgi va predmet o'rtasidagi aynan munosabatning o'zi emas, munosabatning natijasi deb o'rganiladi. Bu yondashuv tarafdorlari belgi va predmet o'rtasidagi munosabatnigina muhim deb bilganlaridan, semasiologik ko'lamda deyarli hech narsani ayonlashtirib bera olmadilar[4].

Shuningdek, I.A. Sterninning xulosasiga ko'ra, funksional yondashuv ham so'zning semantik tahlilida kam mahsuldor hisoblanadi. U ma'noni yuzaki tavsiflaydi. Ushbu yondashuvni keskin tanqid ostiga olgan I.S. Narskiy ma'noni belgiga nisbatan ta'sir sifatida tavsiflashning ma'noning atrofdagilarga ta'sir ko'lamini aniqlash bilan barobar qo'yilishini noto'g'ri deb hisoblaydi. Negaki ma'noni harakat yoki tegishli operatsiyalar bilan tenglashtirib bo'lmaydi[5].

So'zning ma'nosini axborot bilan qiyoslagan I.S. Narskiy axborotning ma'noga nisbatan keng ekanini ta'kidlaydi. Chunki axborot davriy jihatdan to'lg'azib boriladigan hodisa va unda "rost-yolg'on" degan mezonga amal qilinmaydi. Shuningdek, voqelikning ma'noda aks etishi tarixiy xususiyatga ega bo'lib, uning darajasi jamiyat taraqqiyoti va madaniyati, tafakkur rivoji, ishlab chiqarish salohiyatini o'zida ifoda etadi. Demak, bu o'rinda voqelikning ongda akslanishini axborot bilan qiyoslash mantiqsizlikni keltirib chiqaradi.

NATIJALAR

Predmetga aloqadorlik (o'xshashlik)ni ikki ma'noda: denotativ aloqadorlik hamda referent aloqadorlik (yakka predmetga aloqadorlik, o'xshashlik) sifatida tushunish lozim[7,9]. Denotativ aloqadorlik tushuncha negizida sodir bo'ladi. Holbuki,

predmetga aloqadorlik (o'xshashlik)ni mavhum ma'noli leksemalar va keng ma'noli so'zlar misolida ham amalga oshirish mumkin. Xususan, *chiroy*, *joziba*, *nafrat* singari so'zlarning predmetga aloqador belgilari bo'lmaganida edi, ularning har birini istalgan predmet, narsa-hodisaga nisbatan qo'llash mumkin bo'lardi. Qolaversa, ushbu so'zlarning referentlik doirasi ham chegaralangan. Masalan, *chiroy* so'zining ma'noviy tarkibini tabiat manzarasiga qiyosan tahlil qilish mumkin: gul, moviy osmon, charaqlagan quyosh, zilol suv, yashillik, gullar – bularning bari *chiroy* leksemasining ma'nosini ochishga xizmat qiluvchi farqli belgilar hisoblanadi. Insonga xos chiroy xususiyati esa ana shu belgilarga qiyosan aniqlanadi: gul – yuz, chehra, moviy osmon – ko'zlar, zilol suv – tiniq nigohlar, yuz terisining tiniqligi, yashillik – navqironlik singari. Mavhum ma'noli so'zlar semantikasi predmetga tegishlilik belgisining yo'qligi emas, aksincha, predmetga aloqadorlik, o'xshashlik ko'laminig nihoyat darajada keng ekanligi bilan murakkabdir. Hatto *pari*, *dev*, *alvasti* singari mavhum otlarning predmetga aloqador belgilar tizimi mavjud bo'lib, bu belgilarni shu obrazlarning shakl topishiga sabab ko'rsatgan obyektiv voqelikdan qidirish kerak bo'ladi. Ammo *pari*, *dev*, *alvastidagi* referent aloqadorlik haqida gapirish o'rinsiz hisoblanadi, chunki shu obrazlarni konstruktiv jihatdan ifoda etib beruvchi real predmetlar mavjud emas[10,11].

MUHOKAMA

I.A. Sternin leksik ma'nodagi to'rt turdagi komponentni ajratadi. Bular:

- denotativ (ma'noning predmetli-mantiqiy qismi);
- konnotativ (muloqot akti shart-sharoitining ma'nodagi ifodasi, xususan, muloqot ishtirokchilarining muloqot predmeti yoki bir-biriga munosabati);
- selektiv (belgining tilda qo'llanilish qoidalarining ma'noda aks etishi);
- empirik (belgi referentlari to'g'risidagi umumiy tasavvur).

Ta'kidlash kerakki, selektiv komponent ma'noning voqelik bilan murakkab munosabatlarini aks ettiradi. Ya'ni tegishli lisoniy belgining nutq zanjirida qo'llanish tartibi va qoidalari ana shu komponentda o'z ifodasini topadi. U ham real voqelikni bevosita ifoda etadi, lekin o'zga komponentlardan farqli u nutqiy emas, lisoniy sath voqeligini namoyon qiladi.

Selektiv komponent taqiqlovchi yoxud tavsiya beruvchi tabiatga ega (masalan, belgining sintaktik qurilmada kelishi, ya'ni uning leksik-sintaktik uyg'unlasha olish imkoniyati, sintaktik distributsiya – lug'aviy birlikning sintaktik qurilmadagi boshqa lug'aviy birliklar bilan uyg'unlikda kela olishi; valentlik), negaki unda me'yorlashtiruvchi, mezon qo'yishga xoslangan xususiyat mavjud. Masalan, *Prezident rasmiy tashrif bilan Yaponiyaga jo'nab ketdi* sintaktik qurilmasidagi *jo'nab ketdi* birikmasini *jo'nadi*, *ketdi*, *bordi* leksemalari bilan almashtirish nojoiz hisoblanadi. Boshqacha aytganda, selektiv komponent bu toifadagi leksik-sintaktik butunlik

doirasidagi mazkur birliklarga *prezident* leksemasidagi konnotat tarkibidagi rasmiy-uslubiy komponentning talabi bilan ta'qiq qo'yadi. Hukumat rahbari bilan bog'liq xabar matnlaridagi qat'iy me'yorlanganlik yuqoridagi nazariyaga yaqqol misol bo'ladi. Ko'rinadiki, so'zning sintaktik qurilmada o'zga birliklar bilan uyg'unlasha olishi uning leksik-grammatik tabiatiga bog'liq bo'lsa, leksik uyg'unlik uning individual leksik ma'nosiga aloqador bo'ladi.

Selektiv komponent so'zning LSV (leksik-semantik variant)lari o'rtasida farqli belgisini, uning alohidalik xususiyatini namoyon qiladi. Ayni vaqtda tegishli lug'aviy variantning umumiy belgilarini yuzaga chiqaradi. Selektiv komponent denotativ va konnotativ komponentlar bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, *aytmoq* leksemasi *qo'shiq, gap, xabar, ashula, latifa, tabrik* singari leksemalar bilan uyg'unlashadi – valentlik hosil qiladi. Uni *demoq* leksemasi bilan almashtirib bo'lmaydi. Xuddi shunday, *g'azal* so'zi *bitmoq, to'qimoq, yozmoq* leksemalari bilan lug'aviy munosabat hosil qiladi. Bu o'rinda *g'azal* va u hosil qilgan lug'aviy aloqadorlik doirasidagi har bir so'zning o'z semantik uyg'unlik ko'lami mavjud. Xususan, *ertak* so'zining *bitmoq* bilan aloqadorligi mavjud emas. *Ertak to'qimoq* sintaktik qurilmasini esa yana: *o'truk to'qimoq* (Janubiy Qozog'iston o'zbeklari, jumladan, turkistonliklar, iqonliklar shevasi, shuningdek, Surxondaryoning qipchoq shevalarida), *yolg'on (+yashiq) to'qimoq* shakli bilan uyg'unlashtirish mumkin.

Biroq aytilganlardan farqli, belgidagi selektiv komponent so'z denotat yoxud konnotatiga ishora bermagan holda ham ish ko'rishi mumkin. Taqqoslaymiz: *ovqat yemoq – ovqat tanovul qilmoq, ovqat iste'mol qilmoq; jigarrang palto – kashtan sochlar; original qo'lyozma – original tadqiqot – asl qo'lyozma – noyob topilma* va h. Misollar orasidagi *ovqat iste'mol qilmoq*ni nutqda deyarli qo'llamaganimiz singari, *original tadqiqotni asl tadqiqot, noyob topilmani asl topilma* yoxud *original topilma* bilan almashtirib bo'lmaydi.

Sintaktik distributsiya esa uzus bilan aniqlanadi, bunda belgini tegishli sintaktik qurilmada qo'llashning konnotat va denotatga bog'liq bo'lmagan qoidalariga amal qilinadi. Distributiv cheklovlarining miqdori ulkanligidan, so'zlarni tegishli semantik toifaga mansub qilishning deyarli imkoni yo'q. Ko'p hollarda selektiv komponentning "mantiqsizligi" sezilib qoladiki, u tavsiya beruvchi leksik-semantik va leksik-grammatik uyg'unlikni sharhlashning mutlaqo iloji bo'lmaydi. Bunday holatlar fanda frazeologik uyg'unlik deya ta'riflanadi. Shuningdek, frazeologik qatorning biror birligi o'zga birikmalar bilan uyg'unlashmay qolsa, bunday birliklarga *idiomatik birliklar* deb qarash lozim bo'ladi.

Selektiv komponent turli tillardagi o'zaro yaqin ma'nolarni keskin farqlaydi, selektiv komponentga ahamiyat bermaslik esa tarjimadagi qo'pol xatoliklarga olib keladi. Masalan, ingliz tilidagi *take a bus* (avtobus+ga o'tirmoq, avtobusni ushlamoq,

avtobus to‘xtatmoq) ni o‘zbek tiliga *takening olmoq* degan ma’nosiga tayanib, *avtobus olmoq*, rus tiliga *взять автобус* deb o‘girib bo‘lmaydi. Bu holda *avtobus olmoq* tadbirkorlik nuqtayi nazaridan *avtobus sotib olmoq* ma’nosiga tenglashadi hamda *take a bus* dagi ‘jamoat transport vositasini to‘xtatmoq’ ma’nosi yo‘qoladi.

XULOSA

Komponent tahlilda lisoniy belgining biror komponenti ham nazardan chetda qolmasligi, mavjud ma’no ko‘lamlaridan birortasi ahamiyatsiz qoldirilmasligi, eng asosiysi, ma’no-predmet aloqadorligini unutmazlik muhim sanaladi. Bu jihat ma’nolararo aloqadorlikni yuzaga chiqarish hamda hosila ma’no va hosila nomlarning sodir bo‘lish jarayoniga haqqoniy baho berishda ahamiyatlidir. Qolaversa, lison so‘z orqali predmetli olamni namoyon etadi: predmetlarning o‘xshash qirralarini qayd etish va aksincha, farqlashda esa lison benazir quroldir. Tafakkur tarzidagi noyob xislatlar, uning nodir faoliyati aynan lison taqdim etgan alohida nomlar orqali lisoniy hamjamiyat a’zolariga ma’lum bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Горский Д.П. (1957) Роль языка в познании. – МЯ. 94 с.
2. Торопцев И.С. (1975) Исходные моменты лексической объективации. В кн.: *Проблемы ономазиологии*. Курск.
3. Косовский Б.И. (1975) Типы значений слова. В кн.: *Методы изучения лексики*. Минск. С. 22-23.
4. Стернин И.А. (1979) Проблемы анализа структуры значения слова. Воронеж, *Издательство Воронежского университета*.
5. Нарский И.С. (1973) Критика неопозитивистских концепций значения. В кн.: *Проблема значения в лингвистике и логике*. С. 15-16.
6. Makhmaraimova Sh. (2022) Correspondence of lexico-grammatical meaning in the external And internal form of the word. *Asean Journal on Science & Technology for Development*. Vol 39, No 4. 454-459.
7. Makhmaraimova Sh. (2021) Metaphorically formed anatomical terms are the main units of the medical picture of the world. *Philosophical Readings XIII*. 4 pp. 2630-2637.
8. Makhmaraimova Sh. (2021) Hozirgi o‘zbek tili (leksikologiya). *Firdavs-Shoh*.
9. Makhmaraimova Sh. (2021) Metaphorical models of the Uzbek political and social, public discourse *TJE - Thematic Journal of Education*. Volume-6-issue-November. <http://thematicsjournals.in/index.php/tjed>.
10. Makhmaraimova Sh. (2021) Metaphor and national thinking. *TJE - Thematic Journal of the Social Sciences*. Volume-7-Issue-6 2021. <http://thematicsjournals>.
11. Makhmaraimova Sh. (2020) Conflicts in approaches to cognitive and conceptual metaphorical classification. *American Journal of Social Science and Educational Innovation*. November 17, 2020. Pages: 54-60. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue11-09>.